



Theoretical and practical classification of the concept of intertextuality

Shakhobiddin TILAVOV¹

Tashkent State University of Economics

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

intertext,
typology of intertextual
units,
intertextuality,
national-mental
characteristics,
theory of intertextuality,
text interpretation,
oxymoron,
intertextual communication,
expressiveness of literary
text.

ABSTRACT

This article is devoted to the problem of intertextuality, which is always considered to be one of the most important issues in linguistics. The causes and factors of the emergence of the concept of intertextuality, the opinions of international and local linguists who worked on this concept, and the basis of its use in the literary text are discussed. It also talks about various stylistic tools and linguistic, pragmatic, parameological signs used as units of intertextuality. Differences and similarities of the term that is in the center of the discussion with close concepts are also explained with theoretical and practical grounds.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp176-180>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Intertekstuallik tushunchasining nazariy hamda amaliy tasnifi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

intertekst,
intertekstual birliklar
tipologiyasi,
matnlararo,
milliy-mental xususiyatlar,
intertekstuallik nazariyasi,
matn interpretatsiyasi,
oksimoron,

Mazkur maqola tilshunoslikda har doim muhim masalalardan biri hisoblangan intertekstuallik muammosiga bag'ishlangan. Intertekstuallik tushunchasining yuzaga kelishi sabablari hamda omillari, ushbu konsept ustida ishlagan xalqaro, mahalliy tilshunoslarning fikrlari, uning badiiy matnda qo'llanilishi asoslari muhokama qilingan. Shuningdek, intertekstuallik birliklari sifatida qo'llaniladigan turli stilistik vositalar hamda lisoniy, pragmatik, paremeologik belgilar haqida so'z boradi.

¹ Registrar's Office Manager, Samarkand branch of Tashkent State University of Economics.
E-mail: tilavovshaxobiddin991@gmail.com

matnlararo aloqa,
badiiy matnning
ekspressivligi.

Muhokama markazida bo'lgan terminning yaqin tushunchalari
bilan farqlari hamda o'xshashliklari ham nazariy hamda amaliy
asoslar bilan izohlangan.

Теоретическая и практическая классификация понятия интертекстуальности

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интертекст,
типология
интертекстуальных
единиц,
интертекстуальность,
национально-ментальные
характеристики,
теория
интертекстуальности,
интерпретация текста,
оксиморон,
интертекстуальная
коммуникация,
выразительность
художественного текста.

Данная статья посвящена проблеме интертекстуальности, которая всегда считалась одной из важнейших проблем языкознания. Обсуждены причины и факторы возникновения понятия интертекстуальность, мнения международных и отечественных лингвистов, работавших над этим понятием, а также основы его использования в художественном тексте. Также говорится о различных стилистических средствах и лингвистических, прагматических, парамеологических единицах, используемых как единицы интертекстуальности. Различия и сходства термина, находящегося в центре дискуссии, с близкими понятиями также объясняются теоретическими и практическими основаниями.

KIRISH

Keyingi yillarda filologiya ilmida intertekst hamda matnda intertekstuallik kategoriyasining namoyon bo'lishiga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ko'paydi. I. Arnoldning intertekstuallik poetikasi, badiiy asar tushunilishidagi o'rni, N.Fateyevaning intertekstual birliklar tipologiyasi va turlari haqidagi tadqiqotlari, Y.Bashkatova, P.Torop, T.Litvinenkoning dissertatsiyalari, M.Gasparov, I.Galperinning matn va intertekstuallik nazariyasiga oid asarlari yuzaga keldi. Shuningdek, dunyo olimlari intertekstuallik hodisasining lingvistika va adabiyoshunoslikdagi o'rni hamda uning turli xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlari bilan uning nazariy asoslariga ma'lum ma'noda o'z hissalarini qo'shdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Xususan, A.Abramov, Y.Lotman, K.Sidorenko, V.Chernyavskaya, H.Burger, M. Pfister, M.Yampolskiy, A.Frank, M.Riffater kabi olimlar intertekstuallik tamoyilini turli tomondan tadqiq qilgan. Intertekstuallikka aloqador monografik tadqiqotlar esa XX asrning so'nggi o'n yilligida paydo bo'ldi [1;56]. V.Milovidov, I.Smirnov, I.Tolochin, A.Ustin kabi olimlarning ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin. O'zbek tilshunosligida intertekstuallik muammosi dastlab M.Yo'ldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. Uning doktorlik dissertatsiyasida intertekstuallik hodisasi, uning badiiy matn tarkiblanishidagi o'rni va o'zbek badiiy matnlarida uchraydigan turlari haqida ma'lumot berilgan. D.Xudoyberganova esa badiiy matnning antroposentrik tadqiqiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bevosita intertekstuallik tarkibiga kiruvchi presedent birliklarga urg'u bergan. Z.Saliyeva o'zbek va ingliz tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosi haqidagi tadqiqotida bu hodisani intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida baholagan. Tarjimashunos, adabiyotshunos olim M.Xolbekovning ham

intertekstuallik yuzasidan bir qancha maqolalari e'lon qilingan. O'zbek olimlari ham asosan badiiy matnlardagi intertekstuallik hodisasiga e'tibor qaratishgan.

"Intertekst" – muayyan matn ichida keladigan matn yoki uning parchasi, qismlarini anglatuvchi atama, ya'ni matn tarkibida uning muallifiga tegishli boshqa matn yoki umuman o'zga matndan olingan parchadir. Intertekstuallik bevosita matnlaro shu hodisani anglatuvchi atama sanaladi. Ma'lumki, badiiy matnda intertekst sifatida muqaddas kitob va hadislar, folklor namunolari, boshqa bir yozuvchining asarlaridan parchalar keng qo'llaniladi [2; 45].

Intertekstlar o'z navbatida milliy-mental xususiyatlarga ega bo'ladi. Chunki badiiy matn muallifi ko'proq intertekst sifatida xalq ichida mashhur bo'lgan asardan parcha yoxud xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda milliy adabiyotdan, xalq og'zaki ijodidan foydalanadi. Shu sababdan ham matn ichidagi intertekstni o'quvchi darrov tushunib oladi va matnda nima haqida gap ketayotganini qiyosan idrok qila boshlaydi. Chunki intertekst sifatida berilgan matn uning lisoniy xotirasidan allaqachon o'rin olgan bo'ladi. Bu xususiyat esa intertekstuallik hodisasini lingvokulturologik nuqtai-nazardan ham o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, bevosita intertekstuallik hodisasining tarkibiga kiruvchi presedent birliklar lingvokulturologiyaning asosiy obyektlaridan biridir. O'zbek tilidagi mashhur she'r va qo'shiqlardan, rivoyat va kinofilmlardan olingan parchalarni ham intertekst sifatida baholash mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Intertekstuallik nazariyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda intertekstuallik va intertekstni alohida-alohida atama sifatida izohlagan olimlar uning quyidagi xususiyatlari mavjudligini ta'kidlaydilar: -har qanday matn hamma vaqt eski sitatalardan to'qilgan yangi gazlama sifatida namoyon bo'ladi. (R.Bart, V.Leych, Sh. Grivel va bosh.); -bir qancha matnlar (intertekstlar) yagona matnni hosil qiladi va ular umumiy holda matnning implisit ifodasini oshkor qiladi. (A.Jolkovski, I.Smirnov, N.Fateyeva); -intertekst – matn, sitatalar mundariyasi; -badiiy asar semantik strukturasi hosil qiluvchi komponent (S.Zolyan). Bu komponent matn interpretatsiyasiga yo'l ochadi [3;78]. Intertekst o'zida implisit mazmunni saqlagan iqtibos, matn parchasi hamda matnni semantik jihatdan shakllantiruvchi asosiy vosita bo'lib, muayyan matnning intertekstualligini hosil qiladi. M.Riffater intertekst leksikonni birlashtiradigan, sotsiolekt matnning bir turi va biz o'qiyotgan matn bilan uzviy bog'langanligini qayd etadi. K.Sidorenko esa intertekstning lingvistik maqomini boshqa til birliklari qatorida deb belgilaydi. Uningcha, lingvistikada asosiy ikkita til paradigmasi mavjud bo'lib, ular sistem-struktur va antroposentrik paradigmalaridir. Birinchi paradigmada har bir til hodisasi aniq bir iyerarxik darajada joylashib, har bir daraja o'z birligiga ega: fonema, morfema, leksema, so'z birikmasi, gap va matn. K. Sidorenko o'z oldiga sistem-struktur paradigmada intertekst qaysi o'rinni egallaydi va u qanday birlik bilan ifodalanadi degan savolni qo'yib, "intertekstema" atamasini qo'llaydi. Uning fikricha, intertekst matnning struktur qurilishida muhim segment hisoblanib, matnlaro aloqaning leksik, grammatik, prosodik, kompozitsion jihatdan mustahkamlanishini ta'minlaydi [4; 162]. Umuman, intertekst tilning barcha birliklarini birlashtiruvchi doiraviy pozitsiyada turadi.

Badiiy matndagi intertekstual elementlar birlashib uning yaxlit mazmunini ifodalash, asar ekspressivligini oshirish va albatta, qo'shimcha ma'lumot berish uchun xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, intertekstuallik hodisasi o'quvchi uchun tanish bo'ladi va badiiy matnning qabul qilinishini osonlashtiradi. Intertekstual birliklarning bir

nechta turlari mavjud bo'lib, quyidagilar shular sirasidandir: 1. Allyuziya 2. Reminisensiya 3. Epigraf 4. Oksimoron 5. Pretsedent birliklar 6. Geminatsiya 7. Tagma'no 8. Iboralar 9. Maqollar 10. Matallar 11. Alliteratsiya 12. Assonans 13. Ko'chimlar (metafora, metonimiya, ironiya) 14. Parafraza 15. Anafora 16. Epifora 17. Iqtibos 18. Ellipsis.

Quyida ayrim intertekstual vositalarning badiiy matnni yoritishdagi ahamiyati haqida so'z yuritamiz va misollarni ko'zdan kechiramiz.

Intertekstuallikni hosil qiluvchi vositalardan biri sifatida yuqorida oksimoronni ko'rsatib o'tdik. «Oksimoron» atamasi yunoncha (oxys), ya'ni «o'tkir» yoki «keskin,» va (moros), ya'ni «bo'g'iq» yoki «ahmoqona» so'zlaridan kelib chiqqan. Ushbu ikki qarama-qarshi atamaning birikmasi o'z-o'zidan bir oksimoron yaratadi, chunki u keskinlik va bo'g'iqni, ya'ni “keskin lekin be'mani” tushunchalarini yonma-yon qo'yadi. Ushbu tushuncha ritorikada qarama-qarshi g'oyalarni birlashtirish orqali e'tiborni jalb qilish va o'ylantiruvchi ta'sir yaratish uchun qo'llaniladi. Oksimoron ikki ko'rinishda qarama-qarshi yoki zid atamalarni birlashtirib, paradoksal ta'sir hosil qiladigan iboradir. U ko'pincha murakkab g'oyani ta'kidlash, hazil qo'shish yoki dramatik ta'sir yaratish uchun ishlatiladi. Buyuk ingliz adibi va dramaturgi V.Shekspir “Romeo va Julietta” tragediyasida quyidagi jumalarni keltiradi: Good night, good night! parting is such sweet sorrow, That I shall say good night till it be morrow [5;159]. Julietta Romeoning uni tark etayotgandagi qayg'uli his-tuyg'ularini “sweet sorrow” ya'ni «shirin qayg'u» deb tasvirlaydi. Adibning oksimoron ishlatishi shuni ko'rsatadiki, Juliettaning Romeo bilan ajralish haqidagi «qayg'u»si va xafachiligi ham «shirin» va yoqimli. U Romeoga xayrli tun deyishi kerakligini bilib, qayg'u his qiladi. Biroq, u yana uni ko'rishni orziqib kutayotganligi bu yoqimli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bundan tashqari, loving hate (muhabbatli nafrat), heavy lightness og'ir yengillik), bright smoke (musaffo tutun), cold fire (otashin olov), sick health (zaif sog'lik) kabi iboralar ushbu asarda oksimoron sifatida qahramonlar nutqida mohirona foydalanilgan va intertekstuallikni hosil qilgan.

Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi adabiy asarlarni yanada boyitib, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va mazmundorligini ta'minlaydi. Intertekstual elementlar, masalan, allyuziya, reminisensiya, epigraf, oksimoron, pretsedent birliklar, geminatsiya, tagma'no, iboralar, maqollar, matallar, alliteratsiya, assonans, ko'chimlar, parafraza, iqtibos va ellipsis badiiy matnning ekspressivligini oshirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda va asarning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [6; 38].

O'zbek tili madaniyati vakilining har biri uchun ma'lum bo'lgan intertekstlar ham og'zaki ham yozma nutqda, ham rasmiy ham norasmiy nutqda, barcha diskurslarda u yoki bu tushunchani, ma'noni tezroq, aniqroq anglashga ko'maklashadi. Intertekstual birliklar kognitiv xususiyatlarga ega bo'lib, kishilarni keng doirada mushohada qilishga, fikrlashga undaydi, shu nuqtai-nazardan mazkur elementlardan foydalanishni rag'batlantirish, ularni yanada kengroq shakllarda qo'llash so'zlovchi va tinglovchilarning psixolingvistik, sotsiolingvistik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordamlashadi. Misol uchun, biror kishi g'azallarni yozib, yoddan ayta olish qobiliyatiga ega bo'lsa, - Navoiy bo'lib ket-e! degan intertekstual jumla meteforik asoslarga ega, har bir o'zbek kitobxon, xalq vakili bu kontekstda qanday ma'no anglashilayotganligini tushunadi albatta.

Bir so'z bilan aytganda, intertekstuallik nutqimizni yanada sayqallashtirishga, chiroyli, jozibador bo'lishiga zamin yaratadi. Uning kognitiv, pragmatik funksiyalari esa

jamiyatdagi kishilarni turli lingvomadaniy bilimlar yordamida bildirilayotgan fikrlarni anglashga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кузьмина Н.А. Интертекст и его роль в процессах эволюции поэтического языка Текст. / Н.А. Кузьмина. Изд. 2-е, стереотипное. –М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 272.3.
2. Пьеге-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности.–М.: ЛКИ,2008.–С. 133.
3. Riffaterre M. Intertextual Representation: On Mimesis as Interpretive Discourse,Critical Inquiry, 1984. –Р. 141-162.
4. Руднев В. П. Энциклопедический словарь культуры XX века Текст. / В.П. Руднев. –М.: Аграф, 2001.–С. 608
5. Shakespeare W. Romeo and Juliet. <https://shakespeare.folger.edu>
6. Qo'ng'urov R. Uzbek tilining tasviriy vositalari. «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1977, 13-bet
7. Холиков, Б. (2018). Детектив романларда воқеликнинг бадий талқини тизимли моделлаштириш (Марио Пьюзонинг «Чўқинтирган ота» («The godfather») ва Тоҳир Маликнинг «Шайтанат» асарлари мисолида). Фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган докторлик (PhD) диссертацияси автореферати. Фал. фанл. докт.(PhD) дисс.
8. Холиков, Б. (2024). Образы пери (феи) и дэв (бесов) в циклах узбекского эпоса “Гороглы”. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(5), 171-175.
9. Iskandarovich, A. S. (2021). Characteristics of english absolute constructions as compilers of semantic sentence structure. Евразийский научный журнал, (3), 24-26.
10. Аслонов, Ш. (2024). The importance of Artificial Intelligence in the teaching of translation theory and practice. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(5), 50-53.